

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY
MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Azzamxodjaeva Shaxnoza Saiddmatmabovna</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абборова Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF MINING AND METALLURGY IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Gulomjon Jumanazarovich Akhmedov

Director of the Specialized Boarding-School № 1 in Urgench

Independent Researcher

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

E-mail: axmedov.gulom.1981@gmail.com

Abstract. Making tools from stones is a complex and labor-intensive business, so people tried to find suitable types of stone for weapons. Mining began in the ancient Stone Age. From the Paleolithic period to the Neolithic period, limestone was mined from the mountains here. These works can be considered the beginning of mining activities in the Tashkent oasis, the first stage of development of the natural resources of the region.

Keywords: mining, metallurgy, Paleolithic period, Neolithic period, Eneolithic period, Bronze Age, iron.

O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI

G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov

Urganch shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internat direktori

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Toshlardan mehnat qurollari yasash murakkab, ko'p mehnat va vaqt talab etilishi tufayli, odamlar qurollar uchun qulay bo'lgan tosh turlarini topishga xarakat qilganlar. Konchilik ishlari qadimgi tosh asrida boshlangan. Paleolit davridan boshlab neolit davrigacha bu yerda tog'lardan ohaktosh qazib chiqarilgan. Bu ishlarni Toshkent vohasidagi konchilik faoliyatining ibtidosi, hudud tabiiy boyliklarini o'zlashtirishning ilk bosqichi deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: konchilik, metallurgiya, paleolit davri, neolit davri, eneolit davri, bronza davri, temir.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N16>

Kirish. O'zbekiston hududlarida tog'-kon ishlab chiqarish tarixi paleolit-qadimgi tosh davrida boshlangan. Eng qadimgi odamlarning suv, oziq-ovqat va xom ashyo zaxiralari mavjud hududlarda o'rnasha boshlaganlari muhim hayotiy ehtiyoj bo'lgan [6, b. 15-17].

Qulay tosh turlaridan turli shakldagi mehnat va ov qurollari yasash zarurati ibtidoiy konchilikning rivoj topishiga asos soldi. Metall kashf etilishi davriga qadar (mil. avv. IV ming yillik) odamlar qurollarni kvarsit, chaqmoqtosh, yashma, ohaktosh va boshqalardan ishlab chiqarganlar [5].

O'zbekistonning tog'lik hududlarida, Qizilqum janubida ko'p mingyilliklar mobaynida foydalanilgan chaqmoqtosh konlari topilgan. Zarafshon vohasida Uchtut va Ijond, Toshkent viloyatida Ohangaron, Farg'ona vodiysida Qopchig'ay, Nurota tog'larida Chaqmoqtepa konlari

shular jumlasidandir [11]. Konlardan mahsulotlar xom ashyo tarzida manzilgohlarga olib borilgan yoki ashyolarga konlar yaqinidagi ustaxonalarda ishlov berilgan.

Ilk paleolitda tosh sihcilar, qo'l cho'qmorlari va daryo toshlaridan ishlangan sodda, qo'pol qurollar-chopperlar yasalgan, o'rta paleolitda nayzasimon tosh qurollar paydo bo'lgan, so'nggi paleolit davrida qurollar yasashning yangi usullari vujudga kelib, tosh keskich, qirg'ich, yupqa pichoqsimon va boshqa qurollarning shakllari ko'paya boshlaydi [13, b. 11-13].

Toshlardan mehnat qurollari yasash murakkab, ko'p mehnat va vaqt talab etilishi tufayli, odamlar qurollar uchun qulay bo'lgan tosh turlarini topishga harakat qilganlar. Natijada, yangi konlar o'zlashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga qadar olib borilgan turli tadqiqotlar foydali qazilmalarni qazib chiqarish va ularni qayta ishlash davri hamda ma'lum tarixiy bosqichlarda konchilik ishi va temirchilikning darajasi bilan bog'liq ko'pgina masalalarga oydinlik kiritish imkonini beradi.

Arxeolog M.R. Qosimov tomonidan 1958-yilda o'rganilgan Ijand va Uchtut qishloqlari yaqinida chaqmoqtosh ustaxonasi va chaqmoqtosh xomashyosi "konlari"ga duch kelindi. Uchtut qishlog'i yaqinidan topilgan bu ustaxona maydonidan paleolitning must'e va so'nggi bosqichiga doir chaqmoqtosh paraqalari va uchirindilari topilgan. Demak, Uchtut ustaxonasi uzoq davrlar davomida qurolsoz ustalarning birlamchi qurol yasash makoni bo'lgan. Bu joydan neolit shaxtalari ham topilgan hamda arxeologlar tomonidan 1958–1966-yillarda 13 ta shaxta o'rganilgan [14, b. 12].

Qadimgi davr konchiligiga mansub manzilgohlardan yana biri – bu Selung'ur g'ori bo'lib, u Farg'ona shahridan taxminan 100 km janubi-g'arbda, Haydarkonning g'arbiy chekkasida joylashgan. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bu ulkan g'orning chuqurligi 120 metr, kengligi 34 metr va balandligi 25 metr bo'lgan. Arxeologik qazish ishlari XX asrning 80-yillaridan boshlab olib borilgan. G'orda 20–40 sm qalinlikdagi beshta madaniy qatlam aniqlangan. Bu shundan dalolat beradiki, ibtidoiy odamlar mazkur g'orda 5 ta tarixiy bosqichda yashagan va vaqt-vaqti bilan o'z maskanlarini uzoq muddatga tark etishgan. Bu yerdan tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlari va arxantrop tipidagi odam qoldiqlari (10 ta tish va yelka suyagining bo'lagi)ning boy kolleksiyasi topilgan. Ushbu kolleksiyada qo'l cho'qmori, yirik tosh qirg'ichlar va pichoqlar, ko'p miqdorda o'yib-kertib ishlangan tishsimon qurollar mavjud edi. Ular asosan yashma, kremniyli chaqmoqtosh, kremniyli ohaktoshlardan tayyorlangan [14, b. 12].

Eng ko'p material o'rta asrlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ammo ayrim ma'lumotlar Qoramozor va Janubiy Chotqol hududining qazilma boyliklari bilan inson olis qadimdan tanish ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiq qilinayotgan hududda konchilik ishlari qadimgi tosh asrida boshlangan. Paleolit davridan boshlab neolit davrigacha bu yerda tog'lardan ohaktosh qazib chiqarilgan. Bu ishlarni Toshkent vohasidagi konchilik faoliyatining ibtidosi, hudud tabiiy boyliklarini o'zlashtirishning ilk bosqichi deb hisoblash mumkin [7, c. 21-27].

Arxeologik tadqiqotlar Chotqol-Qurama hududida metall qazib chiqarish ishlari miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlanganini ko'rsatadi. Bronza davridagi konchilik ishlarining izlari Chotqol-Qurama hududida hozircha juda kam qayd etilgan. Oqtoshkondagi uncha chuqur bo'lmagan yer osti yo'llariga o'tuvchi ayrim ochiq konlarni bronza davriga mansub deb ko'rsatish mumkin. Oqtoshdan olingan materiallar ham Qoramozorda sulfid ma'danlarini qazib chiqarish so'nggi bronza davridan boshlanganini ko'rsatadi [2, c. 98].

Qayroqqumdan olingan ma'lumotlar ayniqsa diqqatga sazovor. Bu yerda so'nggi bronza va ilk temir davriga mansub bir qancha temir eritish joylari topildi. Aniqlangan manzilgohlarning aksariyatida temir qotishmalar uyumlari uchraydi, ayrim manzilgohlar aholisi esa temir eritish bilan maxsus shug'ullangan bo'lsa kerak. Bu holat «markaziy guruh»ga kiruvchi manzilgohlarga ayniqsa xosdir, chunki bu yerda ma'dan eritish faoliyati bilan bog'liq ancha yirik uyumlarga duch kelindi [8, c. 182]. Ular orasida bir qancha yirik uyumlar va mayda to'kilmalar asosan mis ma'danini eritish bilan bog'liq. Eritish hajmining kattaligi konchilik ishlarining ko'lamidan dalolat beradi. Qayroqqumdagi manzilgohlardan topilgan ma'danlar, qotishmalar va bronza buyumlar (bir tig'li va qo'sh tig'li pichoqlar, ignalar, bigizlar, nayzalar va yoy o'qlarining uchlari, bilaguzuklar, marjonlar va to'qalar)ni maxsus o'rganish xom ashyo olish joylari qayerda joylashganligini aniqlashga ko'maklashadi, ammo mazkur hududda temir eritish joylari jamlanganligining o'ziyoq Qoramozor muhim xom ashyo manbalaridan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Bu hududdagi ayrim qimmatbaho metallar, avvalambor, oltin, kumush konlarini miloddan avvalgi I ming yillikka mansub deyish mumkin. Oltin konlari orasida Ko'chbuloqdagi ayrim yodgorliklar eng qadimgi hisoblanadi. Kumush qazib chiqarilgan hududlar orasida Konimansurni qayd etish lozim. Bu yerda yoy o'qlarining bronzadan yasalgan uchlari topilgan.

Konchilar foydalangan mehnat qurollarining topilishi konchilik ishlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega. Bronza va ilk temir davrida konchilik ishlari amalga oshirilgan joylardan bir nechta qo'pol tosh bolg'alar va og'irligi 8 kg ga yaqin katta tosh cho'kich topildi. Yirik mehnat qurollari asosan ma'danni ochiq usulda qazib chiqarishga mo'ljallangan. Nisbatan kichik mehnat qurollaridan yopiq konlarda ham foydalanilgan. Ayrim qurollardan qo'lda siqib foydalanilgan, ayrimlariga esa dastaklar bog'langan. Yumaloq yoki to'g'ri to'rtburchak shakldagi tosh bolg'a vazifasini bajargan. Mehnat qurollariga maxsus ishlov berilmagan [10].

Qo'shni hududlar bilan taqqoslaganda, Chotqol-Qoramozor hududi konchilari toshdan yasalgan mehnat qurollari bilan bir qatorda, temirdan yasalgan mehnat qurollaridan ham foydalangan bo'lsa kerak. Mil. avv. I ming yillik o'rtalarida konchilar foydalangan qurollari orasida temirdan yasalgan mehnat qurollari paydo bo'ladi.

Ajdodlarimiz ko'hna tarixidan guvohlik beruvchi bir qancha arxeologik yodgorliklarning – Surxondaryo viloyatidagi Sopollitepa va Jarqo'ton (asosan hokim nishonlari, muhrlar, zargarlik va kulolchilik buyumlari) yodgorligi, Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Ayranchi qishlog'idagi Lavandog' qo'rg'oni (bronza va temirdan yasalgan qilich, xanjar), Beshbuloq, Lavlakon (misdan yasalgan ignalar, munchoqlar) dan moddiy ashyolarning topilishi ajdodlarimizning necha ming yillar davomida bosib o'tgan turmush tarzidan guvohlik beradi.

Konchilik ishlab chiqarishining rivoji, ibtidoiy xo'jalik ehtiyojlari tosh davridayoq odamlarni chaqmoqtosh va boshqa toshlardan ham yaxshiroq bo'lgan xomashyo qidirib topishga undagan bo'lishi tabiiy edi. O'rta Osiyodagi foydali qazilmalar va ularning joylashish xususiyatidan kelib chiqilsa, insonlar neolit davridayoq tabiiy mis, oltin va kontimir tosh (meteorit-temir) kabi metallarga duch kelganlar. Bu esa mil. avv. IV ming yillikdayoq konchilik ishlab chiqarishida yangi davrning – metallurgiya davrining boshlanishiga olib keldi [9].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, insoniyatning mis bilan tanishishi tosh davridayoq boshlangan. Lekin kishilarga misning turli tosh turlaridan farqli xususiyatlarini o'zlashtirish uchun bir necha yuz yillar zarur bo'ldi. O'zlariga kerakli mehnat qurollarini yasash uchun yaroqli va mustahkam toshlarni qidirish jarayonida ibtidoiy odamlar yerning yuza qismlarida

joylashgan mis konlariga duch kelgan bo'lishi tabiiy. Asta-sekinlik bilan bu yangi xomashyoning xususiyatlari o'zlashtirildi va uning olov ta'sirida o'z xususiyatini o'zgartirishi, turli shakllarga kirishi kashf qilindi. Keyinchalik mis eritilib, undan turli mehnat qurollari va harbiy qurol-yarog'lar yasala boshlandi. Bu jarayon takomillashib, O'rta Osiyo hududida ko'plab mis konlari ochilishiga va ular atrofida metall eritish ustaxonalari paydo bo'lishiga olib kelgan.

Mintaqa hududida mil. avv. 3-ming yillik oxiriga kelib yangi metall birikmasi — jez (bronza)dan tayyorlangan mehnat qurollari paydo bo'ladi. Mis va qalay yoki mis va qo'rg'oshin birikmasidan (9:1 nisbatda) paydo bo'lgan bu yangi metall mehnat qurollari, ov va harbiy sohada foydalaniladigan qurol-yarog'lar turining kengayishiga olib keldi.

Kaltaminor madaniyatining so'nggi davrida (mil.avv. IV ming yillik), Amudaryoning quyi oqimida yashagan qabilalari misdan foydalana boshlaganliklari haqida ma'lumotlar bor. Markaziy qizilqumda ilk bronza davriga oid 13 ta qadimgi mis konlari bo'lganligi aniqlangan. Bu hududlardan mis ustaxonalari ham topilgan. Tadqiqotchilar misdan yasalgan mehnat qurollarining o'z tarkibidagi qo'shilmalar (mishyak, surma)ga qarab Farg'onadagi yoki quyi Zarafshondagi mis konlaridan olingan xomashyodan tayyorlanganligi haqida fikr bildiradilar [9, c. 11].

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida eneolit va bronza davri yodgorliklaridan misdan yasalgan ko'plab topilmalar (pichoqlar, nayza uchlari, bigiz, igna) va turli taqinchoqlar (uzuk, munchoq va boshqa.) topilgani ma'lum [12]. Lekin mis kimyoviy xususiyatiga ko'ra ancha yumshoq metall bo'lganligi uchun tosh qurollarni butunlay siqib chiqara olmadi. Shu tufayli ham so'nggi tosh va bronza davri oralig'idagi davr eneolit, ya'ni mis-tosh davri deb ataladi.

Mis davri yodgorliklarini va ulardan topilgan turli topilmalarni o'rgangan mutaxassislarining fikricha, dastlabki metall buyumlar sof misdan yasalgan. Bu buyumlarni eng qadimgilari misni olovda eritmasdan, sovuq holda, xuddi toshga ishlov bergandek, urib ishlangani aniqlangan. Faqatgina mil.avv. IV ming yillikning so'nggi yuz yilliklariga kelibgina qadimgi qabilalar misning qimmatli xususiyati – kuchli olovda suyuqlikka aylanishini va har xil shaklga kirib, sovigandan keyin shu shaklni saqlab qolishini bilib olganlar [11].

Mis davri va bronza davri yodgorliklaridan topilgan ashyolarga asosan misdan asosan taqinchoqlar, harbiy qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunga qaramay, Mis metallurgiyasining paydo bo'lishi va ibtidoiy xo'jaliklarda misdan yasalgan mehnat qurollarining paydo bo'lishi asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, tosh qurollarni siqib chiqara boshladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq mavzellaridagi va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oid bo'lib, bu yodgorliklardan chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar va munchoqlar ham topilgan [4, c. 11].

Dastlabki metallurgiya davrida mis juda qimmatli xomashyo bo'lgan va sof mis (ruda) faqat ayrim joylarda uchragan. Dehqonchilik qabilalarining uzoq hududlarga tarqalishi yangi yerlarni o'zlashtirishdan tashqari qazilma boyliklar, metall rudasi konlarini qidirish bilan ham bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoning aholi yashagan ba'zi bir joylaridan keyingi vaqtlarda topilgan uy-hayvonlari suyaklar, tosh yorg'uchoq qoldiqlari va misdan yasalgan ba'zi buyumlar miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik hamda metallurgianing dastlabki kurtaklari paydo bo'lganligidan darak beradi.

Ma'lumki, ibtidoiy odamlar misning juda yaxshi xususiyati – cho'ziluvchanligini kashf qilgan bo'lsalar-da, bu metall qadimgi qabilalarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta o'zgarishlar kiritgan bo'lmagan. Ammo bronzani kashf etish (90 % mis va 10 % qalay) ijtimoiy-iqtisodiy hayotda olg'a qarab tashlangan qadam bo'ldi. Chunki bronza o'z xususiyatlari jihatidan misdan ancha ustun turadi. U misga qaraganda tez eriydi, unchalik mo'rt ham emas, misdan ko'ra ancha qattiq ham. Shuning uchun bronzadan yasalgan qurollar mis qurollarga qaraganda pishiq va chidamli bo'lgan. O'rta Osiyoda bronza davri mil. avv. III ming yillikdan II ming yillikning oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qildi [12].

Bronza davriga mansub yodgorliklar O'zbekistonda dastlab Xorazm, keyinchalik esa Zarafshon, Surxondaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan [17]. Jumladan, Farg'onadagi Haq qishlog'idan bronza va kumushdan yasalgan buyumlar xazinasi topilgan. Bronza davriga mansub buyumlar, ish anjomlari, idishlar, bezaklar, qurollar, oyna, kulolchilik mahsulotlari, ayniqsa metall buyumlar, ustara va boshqa buyumlarning o'ta mukammalligi hamda Sirdaryo deltasidan topilgan, eramizdan oldingi II ming yillik oxirlariga mansub, o'sha davr qabila oqsoqoli yoki yo'l boshchisining qabri bo'lgan Tagisken yodgorligining o'ta boyligi (oltindan yasalgan ko'za, hatto bronza mixlarini oltin suvi bilan bezalganligi) O'zbekistonda konchilik va metallurgiya sohasi yuqori darajada rivojlanganligiga guvoh bo'la oladi [16, c. 233-235].

Eramizdan oldingi III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlariga mansub bronza va latun kabi omuxta ma'danlarni eritishga mo'ljallangan o'choqlar Bo'kontog', Markaziy qizilqum va Nurotadan topilgan. Bu davr shaxtalarining chuqurligi 18 metr gacha bo'lgan. Shuningdek, qizilqumda geologlar va arxeologlar tomonidan bronza va temir eritishga mo'ljallangan ibtidoiy qozon o'choqlar ham topilgan. Ular eramizgacha bo'lgan ikkinchi va birinchi ming yilliklarga tegishlidir. Bu davrda odamlarning yaxshigina metallsoz bo'lganligi haqida ham talay ma'lumotlar bor. Ular yer osti boyliklarining joylashishi haqida ma'lum bilimlardan xabardor bo'lib, konchilik ishi bo'yicha zarur ko'nikmaga ega edilar. Shu bois, o'zlariga kerak bo'lgan metallni qazib olish tajribasini o'zlashtirib, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash texnikasini ancha rivojlantirganlar [11].

Bronza davrida O'zbekiston hududida qalay ham qazib olingan. O'zbekiston-Germaniya qo'shma ilmiy loyihasi ("Islomgacha O'rta Osiyoda qalayni qazib olish") a'zolari tomonidan 1997-1999-yillarda olib borilgan tadqiqotlar davrida O'rta Osiyodagi qadimgi qalay konlari qidirib topildi, bu konlarning bronza davrida Yaqin va O'rta Sharqda metallurgiya rivojida tutgan o'rnini aniqlashtiruvchi yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Folksvagen Fond tomonidan moliyalashtirilib, amalga oshirilgan bu loyiha doirasida Qarnab, Lapas va Chingali (O'zbekiston), Mushiston va Takfon (Tojikiston) qalay konlaridan qadimda qalay qazib olinganligi aniqlandi. Topilgan sopol idishlar va radiouglerod tekshiruv asosida sanalgan vaqt shuni ko'rsatganki, bu hududlarning barchasida qalay konlari andronovo-tozabog'yob madaniyati davriga, ya'ni er. avv. II ming yillikning birinchi yarmiga mansub. Bu davr o'z navbatida Sibirda o'rta bronza davriga va Janubiy Turkmaniston va Baqtriyada so'nggi bronza davrlariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar davomida Qarnabda bitta qadimgi shaxtani tozalab ochishga muvaffaq bo'lindi va uning chuqurligi 17,5 metr ekanligi aniqlandi. Boshqa joylarda esa yer osti suvlari sathi 9,5 m bo'lgan. qadimgi ag'darma va shaxtalarda juda ko'p miqdorda tosh boltalar va ularning bo'laklari, shuningdek, andronovo-tozabog'yob davri sopollari ham

topilgan. Qarnabdagi ko'pgina kon lahmlaridan shu hududda konning butun ishlashi davrida 500 tonna qalay yetkazib berilganligi aniqlangan [1, p. 306-305].

Arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'lib, bu jarayonlarda bronzaning ahamiyati katta bo'lgan.

Zamon o'tishi bilan metallurgiyaning rivojlanishi uchun metall rudasining, jumladan, oltin, mis, temirning bo'lishi katta ahamiyat kasb etgan. Qoraqalpog'istondagi qadimgi makonlardan qadimgi mis konlari va ularga yaqin joylarda ma'dan eritish o'choqlari aniqlandi. Janubiy Turkmanistondagi Anov manzilgohidagi shimoliy va janubiy tepalikning yuqori qatlamlaridan mis va bronzadan yasalgan buyumlar, masalan, o'roq-pichoq, nayza uchlari va zeb-ziynat buyumlari topildi [15, c. 42].

Qadimgi davlatchilikning iqtisodiy bazasi va shu hudud aholisi sonining oshishiga – mis, bronza, qalay va temir qazib olib ishlov berilishi, ya'ni metallurgiyaning rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi O'zbekiston hududi zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da madh etilganidek, tinch, to'kin-sochin, boy va kuchli, ya'ni iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlangan hudud bo'lgan. Yaqin kunlarga fanda, bu hududlarda metallurgiya taraqqiy etmagan, metallga bo'lgan ehtiyoj Markaziy Qozog'istondan, Tuvadan, Eronning janubiy hududlaridan shuningdek Yaqin Sharqning mis va bronza ma'danli hududlari hisobiga qondirilgan, deb hisoblanar edi. Chunki bu davrdagi O'rta Osiyo ikki daryosi oralig'idagi ma'danli asoslar bazasi hali aniq emas edi. Lekin keyingi yillardagi tadqiqotlar bu fikrlarning asossiz ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, Qadimgi So'g'd hududlarida 1997-1999-yillarda O'zbekiston-Germaniya, O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti arxeologik ekspeditsiyasi, Germaniya Arxeologiya Instituti, Boxumdagi Kon Ishlari muzeyi va Germaniya arxeometallurgiya Kon Akademiyasi tomonidan o'tkazilgan keng ko'lamli tekshiruv ishlari davomida Markaziy Sug'ddagi yangi konlar, qadimgi lahmlardan katta hajmdagi mehnat qurollari va sopol idishlar topildi. Bu o'z navbatida bu hududdagi kon lahmlarida qazish ishlari er. avv. II ming yillikka borib taqalishini isbotlab berdi [3, 6. 28].

Qo'shma ekspeditsiyalar davomida katta qiziqishga sabab bo'lgan hudud bu Markaziy qizilqum bo'ldi. qumliklar orasidagi, Aumingzatovdan sharqda, 1 km² maydonda 8 ta mis eritish punktlari va Lavlakon ko'li hududida esa 10 ta eritish punktlari aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Lavlakon hududidagi punktda shu yerdagi ma'danlar eritilgan va keyinchalik boshqa hududlardan ham xomashyo olib kelinib eritilgan. Beshbuloq hududida yana 8 ta konchilar punkti topilgan bo'lib, tadqiqotlarga ko'ra, ularda kimyoviy jihatdan toza bo'lgan mis eritilgan.

Qadimgi metallurglarning eng katta punktlari Chotqol-Qurama tog'lari Yetimtog'dan g'arbroqda ham aniqlangan. Bu hududdan janubiy-g'arbiy yo'nalishda eniga 1,5-2 km va uzunasiga 10 km bo'lgan maydonda ma'danni eritish jarayonida ajralgan qotishmalar borligi aniqlandi. Shuningdek bu yerda ma'dan qazib olish joylari va mehnat qurollari topilgan [3, 6. 28].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib aytish mumkinki, O'rta Osiyo nodir metallar, oltin, kumush konlari bilan qadim davrdan boshlab mashhur bo'lgan. Bu mahsulotlarni qazib olish va foydalanish bronza davridayoq boshlanib, bu jarayon mehnat taqsimotining yanada chuqurlashuvida, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishida, mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida yangi yerlarni o'zlashtirilishida hamda qadimgi aholining iqtisodiy taraqqiyotida

muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin-ki, mil.avv. III-II ming yilliklarda O'zbekiston hududi O'rta Osiyoning mis va bronza metallurgiyasi rivojlangan, hunarmandchilik yuksak darajada taraqqiy qilgan hududlaridan biri bo'lgan.

O'zbekistonning turli hududlarida yarim metall va nometall qazilma boyliklardan foydalanish keng rivojlandi. Olingan qazilma boyliklar mahalliy hunarmandlar ehtiyojini qoplashdan tashqari muhim strategik xomashyo sifatida chet mamlakatlarga ham eksport qilinardi. Bu davrda Qarnab, Uchqo'rg'on, Chirchiq-Ohangaron vohasi, Ugam daryosi yuqori oqimi, Nurota tog'laridan va boshqa hududlardan turli ma'danlar, metallar qazib olingani ma'lum.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Alimov K., Bubnova M., Burjakov J., Jakubov J., Pernicka E. and Weisqerber G. Das Zinn der Bronzezeit in Mittelasien I – Berlin. 2003. 306–307 seitens.
2. Буряков Ю.Ф. К истории горного дела и металлургии..., с.98.
3. Буряков Ю.Ф. Металлургическая база древней государственности Согда и Хорезма //Сўғд Марказий Осиёнинг маданий алоқалар тизимида мавзусидаги конференция тезислари. -Самарқанд. 1999. 28-бет.
4. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. –Т.: Фан, 1966. С. 41.
5. Исламов О.И. Из истории геологических знаний в Средней Азии. –Ташкент: Фан, 1976. Кн.1. –102 с.
6. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.15-17.
7. Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Мастерские каменного века в долине р. Ангрен //ИМКУ. Вып.8. –Т., 1969. С.21-27.
8. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайрак-кумов (Древнейшая история северного таджикистана) -Душанбе, 1962. -С.182, 196-231.
9. Лордкипанидзе Л.Н. История геологического изучения Узбекистана в системе цивилизации Азии. –Т., 2001. -С.11; А.Сагдуллаев. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. –Т.: Университет, 2004. –Б. 21
10. Массон М.Е. Археологические материалы к истории горного дела в Средней Азии. Горные инструменты. //САРГУР Бюллетен. –Т., 1930. №2.
11. Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. –Ташкент: 1953. – С. 6-7; Касымов М.Р. Кремнедобывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. –Ташкент: Фан, 1972. –160 с.; Темиров Г.Т., Одинаев З.Д. Қадимги давр кончилиги ва металлургияси. –Навоий, 2004. –Б. 8-10.
12. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. –М.-Л.: Наука, 1964; Сарианиди В.И. Энеолитическое поселение Геоксюр. //Тр. ЮТАКЭ. –Т.Х. –Ашхабад: Ёлым. 1960.
13. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. –Тошкент: Университет, 2004. –Б. 11-13.
14. Санақулов Қ., Х.Раупов, О.Хаитова. Ўзбекистонда кон-металлургия тарихи. - Тошкент: Mashhur-Press, 2019. – Б.12
15. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. –М.-Л.: Наука, 1966. с. 42.
16. Темиров Г.Т. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. С.233-235.
17. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: Изд-ва МГУ, 1948; Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура...; Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. –Т.: Фан, 1977; Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы //МИА. –1962. -№118.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).